

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrası assistenti G.B.Ubaydullayevaning “Veterinariya diagnostikasi va oziq –ovqat xavfsizligi” fakulteti 60840400-Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalariga “Hayvonlar biokimyosi” fanidan “Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg’ulotiga

T A Q R I Z

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti G.B.Ubaydullayevaning **“Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri”** mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg’ulot darsining uslubiy ko’rsatmasida ushbu muammoning dolzarbligi, uni o’rganish veterinariya amaliyotidagi ahamiyati to’la to’kis yoritilgan. Mavzuda shu mavzuga oid atamalar, ularni izohlari tushuncha holatida berilgan. Laboratoriya mashg’ulotida qo’llaniladigan laboratoriya jihozlari ya’ni kerakli asbob va reaktivlar sanab o’tilgan. Bundan tashqari laboratoriya mashg’ulotining asosiy qismi to’liq yoritilgan.

Laboratoriya mashg’ulotning taqdimotida “Hayvonlar biokimyosi” fanidan **“Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri”** mavzusi batafsil yoritilgan bo’lib, sut oqsillariga og’ir metall tuzlarining ta’siri, sut tarkibidagi oqsillarning ahamiyatini o’rganish. Shuningdek, laboratoriya tajribalari asosida mavzu mustahkamlangan. Dars pirovardida laboratoriya mashg’ulot bo’yicha ishlanma talabani fikrlash qobiliyatini oshiruvchi va shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat testlari va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Laboratoriya mashg’uloti taqdimotida internet ma’lumotlaridan foydalanilgan bo’lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o’zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistent G.B.Ubaydullayevaning **“Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri”** mavzusidagi laboratoriya mashg’uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o’ylayman va uni o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

SH.Rashidov nomli Samarqand Davlat Universiteti

qoshidagi Biokimyo instituti “Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyosi” kafedrası dotsenti

M.A.Ismoilova



“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti G.B.Ubaydullayevaning “Veterinariya diagnostikasi va oziq –ovqat xavfsizligi ” fakulteti 60840400-Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalariga “Hayvonlar biokimyosi” fanidan “Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg’ulotiga

T A Q R I Z

Laboratoriya mashg’ulot mavzusi fan dasturi va ishchi o’quv dasturiga to’liq mos keladi. Laboratoriya mashg’ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to’g’ri taqdimot qilingan. Dastlab laboratoriya mashg’ulotning maqsadi va vazifalari, laboratoriya mashg’ulotini o’qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo’lib, unda pedagogik faoliyat va o’quv faoliyat natijalari ko’rsatilgan. Laboratoriya mashg’ulotining texnologik xaritasida esa, o’quv mashg’ulotining vaqti ko’rsatilgan.

Mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko’rgazmali qurollardan o’z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, laboratoriya mashg’ulotda talabalar bilan muloqotda bo’lib, mavzu yuzasidan fikrlar so’ralib o’tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to’g’ri yozilgan shuning uchun assistent G.B.Ubaydullayeva tomonidan tayyorlangan **“Sut oqsillariga og’ir metall tuzlariga ta’siri”** mavzusini o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

SamDVMCHBU

**“Hayvonlar fiziologiyasi,
biokimyosi va patologik fiziologiya”
kafedrası dotsenti.**

